

**O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**JUMAYEV SOHIBJON BOTIRBOYEVICH**

**11-12 YOSHLI KURASHCHILARNING O'QUV MASHG'ULOT  
JARAYONINI REJALASHTIRISH METODIKASI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy  
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Jumayev Sohibjon Botirboyevich**

11-12 yoshli kurashchilarning o‘quv mashg‘ulot jarayonini rejalashtirish metodikasi.....	3
---	---

**Джумаев Сохибжон Ботирбоевич**

Методика планирования учебно-тренировочного процесса курашистов 11-12 лет .....	29
--	----

**Jumayev Sakhibjon Botirbayevich**

Methodology for planning the training process of 11-12-year-old kurash .....	57
--	----

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ
-----------------------------

List of published works .....	61
-------------------------------	----

**O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**JUMAYEV SOHIBJON BOTIRBOYEVICH**

**11-12 YOSHLI KURASHCHILARNING O'QUV MASHG'ULOT  
JARAYONINI REJALASHTIRISH METODIKASI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy  
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining B2023.2.PhD/Ped5304 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.uz-djtsu.uz](http://www.uz-djtsu.uz)) va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nurullayev Abduxoliq Qahhorovich**  
pedagogika fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Allamuratov Shuxratulla Inoyatovich**  
biologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Toshnazarov Jasur Yo'ldoshevich**  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori. (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston finlandiya pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "\_\_\_\_\_""\_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko'chasi, 15-uy. Tel.: (0-370)-717-17 79,717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76, Veb-sayt: [www.uzdjtsu.uz](http://www.uzdjtsu.uz), e-mail:[uzdjtsu@uzdjtsu.uz](mailto:uzdjtsu@uzdjtsu.uz). O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "Madaniyat saroyi", 2-qavat, konfrensiyalar zali.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**R.M.Matkarimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Sh.Sh.Gaziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**A.N.Shopulatov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

## **Kirish (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati.** Dunyoda zamonaviy sport shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda milliy sport turi kurash ham misli ko‘rilmagan darajada ommalashib bormoqda. Kurash musobaqalari ko‘plab xalq bayramlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bilan birga aholini jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy tarzda shug‘ullanishga jalb qilishdagi asosiy vazifalardan biri milliy sport turlarini rivojlantirish hisoblanadi. Jahon miqyosida har bir xalq va elatning o‘ziga xos milliy sport turlari bo‘lganidek, mamlakatimizda ham kurash milliy sporti shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Ko‘plab mamlakatlarda kurash bilan shug‘ullanuvchi sportchilarni tayyorlash tizimini zamon talablariga moslashtirish yuzasidan keng ko‘lamli amaliy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda milliy sport turi kurash orqali o‘zbek so‘zlari jaranglayotgani milliy kurash turining ommalashayotganligidan dalolat beradi. Kurash sport turi bo‘yicha qo‘lga kiritilgan yutuqlarimiz salmog‘i sezilarli darajada ko‘zga tashlanmoqda. Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhida shug‘ullanuvchi kurashchilarining o‘quv-mashg‘ulotlar jarayonida texnik tayyorgarligini oqilona shakllantirish, shug‘ullanuvchilarining tanlagan sport turiga bo‘lgan motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirish, tezkor-kuch hamda barcha jismoniy sifat xususiyatidagi vositalarni qo‘llash asosida shug‘ullanuvchilarining texnik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq milliy kurashga xos texnik-taktik harakatlar va jismoniy sifatlarni rivojlantirish, boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi kurashchilarining yillik mashg‘ulot sikllariga tayyorgarlik turlari bo‘yicha yuklama me’yorlarini taqsimlash, mashg‘ulotlarni rejalashtirish metodikalari hamda texnik harakatlarga dastlabki o‘rgatish uslubiyati bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommaviylashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Mamlakatimizda milliy sportni yuqori darajaga olib chiqish, ilmiy-nazariy umumlashtirish, hozirgi zamon sivilizatsiyasi bilan aloqador ekanligini alohida qayd etish”<sup>1</sup> oliv sportda erishilgan yutuqlar bilan cheklanmasdan, ommaviy sportga ham katta e’tibor berishimiz kerakligini ko‘rsatmoqda. Mavjud holat esa sportchining butun faoliyati davrida dastlabki texnik-taktik harakatlarni o‘rganishda orttirgan nuqsonlaridan xoli bo‘lishni qiyinlashtiradi, jismoniy va funksional imkoniyatini, ayniqsa, texnik-taktik imkoniyat doirasini toraytiradi. Hozirgi vaqtda deyarli barcha ta’lim muassasalarida kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirish, tanlangan sport turining dastlabki bazaviy texnik harakatlari elementlarini o‘rgatish algoritmini ilmiy-uslubiy jihatdan ishlab chiqish zarurati yuzaga kelgan. Bu esa kurashni jahon standartlari darajasida yanada rivojlantirish, sportchilarni tayyorlash tizimini ilmiy asoslab berishning dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan” yig‘ilishdagi nutqi; 2018-yil 21-sentyabr, Xalq so‘zi gazetasi, 1-2-bet.

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni hamda 2017-yil 2-oktyabrdagi PQ-3306-son “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda shu sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish ushbu dissertatsiya tadqiqotini yozishda yuqori darajada xizmat qilmoqda.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustivor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

### **Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.**

O‘z ishlari nazariyasi sifatida A.R.Taymurodov, Sh.A.Abdullayev, I.B.Aliyev, F.A.Kerimov, Z.S.Artikov, Sh.E.Keldiyorov, B.B.Odilovlar<sup>2</sup> tomonidan ta’limni boshqarishda tizimli yondashuv metodologiyasi, oliy kasbiy ta’limni boshqarishda tizimli yondashuv nazariyasi va konsepsiysi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shu bilan birga kurash milliy sport turi harakatlarini dastlabki o‘rgatish uslublarini takomillashtirish, kurash nazariyasi va uslubiyati, belbog‘li kurashda statik va dinamik kuchlanish davomida muvozanat saqlash funksiyasini shakllantirish metodikasi, belbog‘li kurashchilarni texnik harakatlarga o‘rgatishda noan’anaviy mashqlar yordamidan foydalanish uslubiyati, kurashchilarda raqibni ko‘tarib tashlash ish qobiliyati va uni rotatsion trenajor mashqlar yordamida rivojlantirish ustuvorligi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishgan. Harakat faoliyatini o‘rgatish ilmiy nazariyasi va uslublari bo‘yicha Yu.V.Boltikov, O.B.Solomaxin, G.M.Polko, B.A.Bavikin, R.N.Apoyko, B.I.Tarakanov, A.S.Davtyan, A.A. Chatinyan, V.V.Yefremov, M.G.Kolodeznikova, N.D.Nikolayevlar<sup>3</sup> tomonidan yaratilgan ilmiy-uslubiy ishlar yakkakurashlarning

<sup>2</sup> Таймуродов А.Р. Кураш. Монография 2007.- 78 б.; Abdullayev Sh.A. Erkin kurash. Toshkent, axborot press 2017-y.; Aliyev I.B. Kurash bilan shug‘ullanuvchi talabalarining mashg‘ulot yuklamalari. Toshkent –2012-y.; Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. – Т.: ITA-press, 2018. – 356 б.; Артиков З.С. Белбоғли курашда статик ва динамик кучланиш давомида мувозанат сақлаш функциясини шакллантириш методикаси. Дисс. 2019. - Б.15-30.; Ш.Э.Келдиёров Кураш миллий спорт тuri харакатларини дастлабки ўргатиши услубларини такомиллаштириш. Монография.Т.: 2021. - Б.10-40.; Z.S.Artiqov. Belbog‘li kurashchilarni texnik xarakatlarga o‘rgatishda noan’anaviy mashqlar yordamidan foydalanish uslubiyati. PhD dissertatsiyasi. Chirchiq, 2023. – В. 85-87.; Odilov B.B. Kurashchilarda raqibni ko‘tarib tashlash ish qobiliyati va uni rotatsion trenajor-mashqlar yordamida rivojlantirish ustuvorligi. PhD dissertatsiyasi. Chirchiq, 2023. – В. 56-58.;

<sup>3</sup> Болтиков Ю.В., Соломахин О.Б. Образовательный компонент как стимул долговременной физкультурно-спортивной деятельности обучаемых в секции борьбы // Теория и практика физической культуры. – № 2.– М., 2001. – С. 45.; Полко Г.М. – Обоснование методики обучения техническим действием в борьбе кураш. Челябинск 2004.; Бавыкин Б.А. Скоростно-силовая тренировка как фундамент специальной физической подготовки в комплексных единоборствах // Теория и практика физ.культуры, 2010.№2, - С.20-23.; Апойко Р.Н. Влияние последних изменений правил соревнований по греко-римской борьбе на спортино-технические показатели соревн - ной деятельности борцов / Р.Н. Апойко, Б.И.Тараканов // Ученые записки Унив-та имени П.Ф. Лесгата. - 2013. №10. С.17-23.; Давтян А.С., А.А. Чатинян Некоторые аспекты совершенствования технической подготовленности юных борцов // Наука и спорт: современные тенденции. 2017. №2. - С.10-15.; Ефремов В.В., Колодезникова М.Г., Николаев Н.Д. Анализ соревновательной деятельности борцов вольного стиля высокой квалификации. Теория и практика физической культуры. 2017. - С. 66-68.

harakat ko‘nikmalarini shakllantirish konsepsiyasini yaratishda fundamental asos hisoblanadi. Keng tarqalib borayotgan kurash milliy sporti bo‘yicha yuqori malakali sportchilar tayyorlash nazariyasi va uslubiyati, kurashda qo‘llaniladigan texnik harakatlarning ijro etilishi va ularni o‘rgatish ketma-ketligi va pedagogik shart-sharoitlari bilan bog‘liq masalalarning ilmiy-nazariy va umumiy-uslubiy texnologiyasi asoslari tizimli tartibda yaratilmagan. Bu borada keng qamrovli ilmiy asoslangan o‘quv va ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar yetarli darajada mavjud emasligi tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

Oxirgi yillarda nashr etilgan ilmiy-uslubiy manbalar kam sonli qo‘llanmalarda kurashning ko‘p yillik sport mashg‘ulotlarini tashkillashtirish, yuqori malakali murabbiylar tomonidan mashg‘ulotlarni rejalashtirish modellarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish, yosh kurashchilarda ovqatlanish ratsioni va vaznni nazorat qilish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarining ta’siri hamda musobaqa va musobaqadan keyingi holatlarini o‘rganishga bag‘ishlanganligi A.C.Junior, A.J.Drigoade, A.Palao va boshqa olimlar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan<sup>4</sup>.

Biroq ushbu ilmiy, o‘quv va uslubiy manbalarda mazkur dissertatsiya mavzusi sifatida tanlangan kurashda ustuvor ahamiyat kasb etuvchi texnik-taktik harakatlarni dastlabki elementlarini o‘rgatish, bu jarayonda o‘rnatilgan ketma-ketlikka rioya qilish va pedagogik shart-sharoitlar yaratish masalalari bo‘yicha deyarli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmaganligi pegagogik kuzatuvlarimiz davomida aniqlandi. Bu esa biz tomonimizdan ilgari surilayotgan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliv ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining V.I/2 “O‘quvchi-yoshlarning jismoniy qobiliyatlarini, jismoniy sifatlarini rivojlantirish usullarining yangi innovatsion texnologiyalarni samaradorligini aniqlash” mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** boshlang‘ich tayyorgarlik guruhida shug‘ullanuvchi 11-12 yoshli kurashchilarning harakat tayyorgarligini optimallashtirishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

boshlang‘ich tayyorgarlik guruhida shug‘ullanuvchi yosh kurashchilarning tayyorgarlik davrida mashg‘ulotlarni mikrosikllar asosida rejalashtirish orqali optimallashtirish;

11-12 yoshli kurashchilarni texnik harakatlarga o‘rgatishda kurashchilarning texnik elementlarini bajarish ko‘nikmalarini mustahkamlash;

boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi kurashchilarni tayyorlashda texnik elementlarni mikrosikllarga taqsimlash;

boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi yosh kurashchilarning tayyorgarlik turlari ko‘rsatkichlarini rivojlantirish uchun yuqori kompleks tayyorgarlik darajasiga erishish.

<sup>4</sup> Junior A.C., & Drigoade A.J. Application of training periodization models by elite judo coaches. Archies of Budo, 13, 2017.- P. 139-146.; Palao A. Effect of educational training on nutrition and weight control in under18 Spanish wrestlers. Motriz: Reista de EducaçãoFísica, 23(1), (2017). P. 76-80.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida boshlang‘ich tayyorgarlik guruhida shug‘ullanuvchi 11-12 yoshli kurashchilarning kompleks tayyorgarlik jarayoni tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** boshlang‘ich tayyorgarlik guruhida shug‘ullanuvchi 11-12 yoshli kurashchilarning kompleks tayyorgarligida qo‘llanilgan vosita va usullarni qo‘llash jarayoni tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba va matematik statistika usullari foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

11-12 yoshli kurashchilarning o‘quv mashg‘ulot jarayonidagi dastlabki o‘rgatish bosqichida jarohatlanishni oldini olish uchun ko‘p seriali intervalli mashq metodini, organizm funksional ko‘rsatkichlarnini yaxshilash uchun almashib turuvchi uzlusiz mashq metodini qo‘llash hisobiga submaksimal yuklamalarga moslashish imkoniyati oshirilgan;

11-12 yoshli kurashchilarning mashg‘ulot jarayonida asosiy turish holatidagi hujum harakatlarida o‘z - o‘ziga qarshilik ko‘rsatib bajaradigan mashqlarni o‘rtalashtirish sur’atda bajartirish hisobiga asosiy muskul guruhlarini rivojlantirish imkoniyati kengaytirilgan;

boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi kurashchilarni tayyorlashda texnik elementlarni mikrosikllarga taqsimlab rejlashtirish asosida mikrosiklning ilk kunida mashg‘ulot hajmining 43 %, ikkinchi kunida 62 % va beshinchi kunida 74 % kuch sifatini rivojlantiruvchi shiddati yuqori va o‘rtalashtirish sur’atda shiddatli aerobik mashqlar hamda tiklovchi vositalarini me’yorlash hisobiga haftalik mikrosiklining optimal nisbatlari ishlab chiqilgan;

boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi yosh kurashchilarning tayyorgarlik turlari ko‘rsatkichlarini rivojlantirish uchun musobaqa faoliyatidan kelib chiqqan holda bajariladigan usullarini, kombinatsiyalarni qo‘llash hisobiga yosh kurashchilarning yuqori kompleks tayyorgarlik holatiga erishilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi kurashchilarni tayyorlashda yillik tayyorgarlik sikllariga tayyorgarlik turlari bo‘yicha yuklama me’yorlari mikro va me’zosikllarga ajratilib optimal nisbatlari amaliyatga joriy etilgan;

kurash milliy sport turi bilan shug‘ullanuvchi yoshlar uchun o‘quv rejasi bo‘limlarining (nazariy, maxsus jismoniy tayyorgarlik, umumiy jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik) mazmuni boyitilib, amaliy mashg‘ulot jarayonlariga tatbiq etilgan;

kurash milliy sport turi to‘garaklarida tanlangan sport turining alohida usulini o‘zlashtirishning usullarini qismlarga bo‘lib yoki asosiy xatolarni to‘g‘rilab, umumiy holda o‘rganish, usulni asta-sekin tezlashtirib borgan holda va siljishlar bilan birgalikda bajarish hamda usulni raqibning harakatlariga qarab bajarish namunaviy ketma-ketligi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi.** O‘tkazilgan tadqiqot natijalarining ishonchiligining bilish nazariyasi metodologiyasi (bilishning dialektik uslubi)

hamda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi sohasidagi respublikamiz va xorijiy olimlar fikr-mulohazalariga mos kelishi, tadqiqot vazifalariga asoslangan o‘zaro bir-birini to‘ldirib boradigan tadqiqot uslublarining qo‘llanilganligi, tajriba-sinov ishlari hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil uslublari yordamida qayta ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘tkazilgan pedagogik tajribalar asosida kurash texnik harakatlarini o‘rgatish uslublarini pedagogik asoslab, kurashchilarning amaliy tayyorgarligini rivojlantirishda qo‘llaniladigan yuklamalar yo‘nalishlari taqsimlanib, ulardan foydalanish samarali ekanligi asoslab berilgan hamda Respublikamizda kurashni rivojlantirishning yoshga va jinsga xos xususiyatlari, ularga alohida ishlab chiqilgan yuklamalar asosida tayyorgarlik jarayonida bo‘ladigan ijobiy o‘zgarishlar va ularning jamlanmasini ilmiy mohiyati ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot davomida pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, testlash natijalari asosida olingan ma’lumotlar kurash milliy sport turida qo‘llaniladigan texnik-taktik usullar, ularni tadqiqot usullarida bajarish samaradorligini ta’minlovchi bir qator aylanma harakatlar, o‘rgatishda rioya qilish kerak bo‘lgan ketma-ketliklar ishlab chiqilganligi, texnik harakatlarning dastlabki o‘rgatish uslubini optimal tanlashga yo‘naltirilgan kurashdagi hujum qilish va himoyalanish faoliyatining tuzilishi, hujum qilish va himoyalanish harakatlarini musobaqa olishuvlarida taqsimlanish dinamikasi ilmiy asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.** 11-12 yoshli kurashchilarning harakatlarini dastlabki o‘rgatish uslublarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi kurashchilarning mashg‘ulotlarni optimallashtirish uchun mashg‘ulot davrlariga tayyorgarlik parametrlaridagi yuklamaning hajm va shiddat me’yorini taqsimlash hisobiga yillik tayyorgarlik davridagi mikrosikllar uzviyligini variativ qo‘llash bo‘yicha takliflar Nukus Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida shug‘ullanuvchi yosh kurashchilarning mashg‘ulot jarayonlariga joriy etilgan (Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 27-dekabrdagi 04-01/04/20/13934-son dalolatnomasi). Natijada 11-12 yoshli kurashchilarning chidamlilik sifati 19,17% ga, turnikda tortilish bo‘yicha kuch sifati 18,9% ga, egiluvchanlik sifati 19,3% ga yaxshilangan.

11-12 yoshli kurashchilarga texnik harakatlarini bajarish asosida to‘rt bosqichli yangi texnikani shakllantirish, texnika element malakalarini chuqur o‘zlashtirish, musobaqa sharoitlariga mos holda variativ qo‘llash va harakatlanish texnikasini takomillashtirish hisobiga kurashchilarning texnik elementlarini bajarish metodikasi Romitan tumani sport makkabining musobaqa yosh kurashchilarida qo‘llanilgan (Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 27-dekabrdagi 04-01/04/20/13934-son dalolatnomasi). Natijada 12 yoshli kurashchilarda “Akrobatik mashqlar” bo‘yicha 17,2 %, “Ko‘prik holatida boshda aylanish” me’yoriy ko‘rsatkichi bo‘yicha esa 16,7%, “Ko‘prikda tik turish va aylanish” me’yor ko‘rsatkichlari 15,9 % ga yaxshilangan;

boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi kurashchilarni tayyorlashda texnik elementlarni mikrosikllarga taqsimlash va rejalarhtirish asosida mikrosiklning ilk kunida mashg‘ulot hajmining 43%, ikkinchi kunida 62% va beshinchi kunida 74% kuch sifatini rivojlantiruvchi shiddati yuqori va o‘rta shiddatli aerobik mashqlar va tiklovchi vositalarini me’yorlash bo‘yicha vosita va usullar Navoiy viloyati kurash federatsiyasi tarbiyalanuvchilarining mashg‘ulot jarayonlariga qo‘llanilgan (Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 27-dekabrdagi 04-01/04/20/13934-son dalolatnomasi). Natijada mashg‘ulot mikrosikllariga yuklamalar me’yorini taqsimlab organizmni tiklanish jarayonini tezlashishiga erishilmoqda;

boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi yosh kurashchilarning tayyorgarlik turlari ko‘rsatkichlarini rivojlantirish uchun musobaqa faoliyatidan kelib chiqqan holda tik turgan holatda bajariladigan usullarini parterda kombinatsiyalarini qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar Navoiy Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi sportchilari mashg‘ulot jarayonlarida berilgan (Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 27-dekabrdagi 04-01/04/20/13934-son dalolatnomasi). Natijada boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchilarning kompleks tayyorgarlik ko‘rsatkichlari umumiy hisobda 10.5%ga yaxshilanishiga erilshilgan;

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11ta ilmiy ishlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishda tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 3 ta maqola, shundan 1 tasi xorijiy ilmiy jurnalda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bobdan iborat bo‘lib, 155 sahifalik matn, 6 ta rasm, 21 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish.** So‘nggi yillarda turli yo‘nalishdagi yuklamalardan foydalanib, mashg‘ulot jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganish bo‘yicha ko‘pgina ishlar qilingan.

Biroq mavjud manbalarni tahlil qilish natijasi shuni ko‘rsatdiki, kurash bo‘yicha sportchilarni tayyorlashda mashg‘ulotlar jarayonida maxsus tayyorgarlik sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni ilmiy asoslangan holda olib borish bugungi kunda milliy kurashimiz amaliyotida talab darajasida yo‘lga qo‘yilmagan. Shuning uchun boshqa sport turlarida olib borilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan ba’zi yangi usullarni kiritish lozim.

Dissertatsiyaning “**Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida kurashchilarni tayyorlash tizimining ilmiy-pedagogik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvich 11-12 yoshli

kurashchilarning jismoniy tayyorgarligining o‘ziga xos xususiyatlari, 11-12 yoshli bolalarning jismoniy rivojlanishini yoshga xos xususiyatlari, boshlang‘ich tayyorgarlik guruuhlarida shug‘ullanuvchi kurashchilarni mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish va taqsimlash bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Sport amaliyotida ilg‘or tajribalarni o‘rganish natijasida kurash mutaxassislari tomonidan mashg‘ulotlarni rejalashtirish yo‘nalishidagi kompleks ta’sir qiluvchi mashg‘ulotlardan foydalanish masalasi ko‘rib chiqilib, mashg‘ulotlarning birinchi variantida vazifalarning bir tomonlama hal qilinishi va ikkinchi variantida hal qilinadigan vazifalar tarkibi borgan sari kengayib borishi aniqlandi (Yu.V.Boltikov, O.B.Solomaxin, G.M.Polko, B.A.Bavikin).

Mashg‘ulotlarning kompleks ta’siri ikki yo‘nalishda qo‘llaniladi. Bunda kurashchilarning maxsus va umumiy jismoniy sifatlarini rivojlantirish doirasida, mashg‘ulotlarning farqlovchi xususiyatlari bir vaqtida va navbat bilan qo‘yilgan tarzda bajariladigan vazifalar sonini oshirib borish bilan belgilanadi. Shu jumladan, mashg‘ulot dasturini galma-gal bajarish davomida izchil tarzda yoki bir vaqtida mashg‘ulot oldiga qo‘yilgan vazifalar hal etildi (A.R.Taymurodov, Sh.A.Abdullayev, I.B.Aliyev, F.A.Kerimov).

Birinchi holatda mashg‘ulot shartli ravishda bir necha bo‘limlarga bo‘linadi. Masalan, tezkorlik sifatlarini rivojlantirish ustida ishlash, so‘ngra shiddatli va qisqa muddatli ishlarni bajarish asosida maxsus chidamlilikni rivojlantirish, keyinchalik uzoq muddatli mushak faoliyatini bajarish uchun zarur bo‘lgan umumiy chidamlilikni rivojlantirish. Natijada, kurashchilarga kompeleks ta’sir qiluvchi mashg‘ulotlar bilan barobar holda kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligi vazifalarini hal qilish va yuqori malakali kurashchilarni tayyorlash tizimida maxsus va umumiy chidamlilik sifatlarini rivojlantirish, so‘ngra kuch sifatini tarbiyalash vazifalarini hal qilish nazarda tutiladi.

Mashg‘ulot yuklamalarining kattaligi sport kurashida mashg‘ulot davomida bajarilgan mashqlarning sportchilar organizmiga ta’siri hisoblanadi. Yuklamaning kattaligi sportchilarning ish qobiliyatini tiklash davomiyligini belgilaydi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot uslublari va uni tashkil qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, pulsometriya, videotahlil, pedagogik testlash uslublari, pedagogik tajriba, matematik-statistika metodlari bayon qilingan.

Pedagogik tajriba o‘tkazishning asosiy bosqichlari.

I bosqich (2021-yilning yanvar-may oylari)da. Ushbu bosqichda tajribani o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish, vazifalar, tadqiqot bosqichlari va muddatlari, tajriba tadqiqotlarida qo‘llaniladigan nazorat mashqlari mazmuni aniqlashtirildi. Tajribada ishtirok etuvchi yosh kurashchilarni tanlash, ular bilan tajriba maqsadi haqida suhbat o‘tkazish ishlari olib borildi. Tajribaga jalb qilinadigan yosh kurashchilarning an’anaviy mashg‘ulotlari o‘rganildi. Nazorat va tajriba guruuhlarida tajriba muddati davomida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar dastlabki o‘rgatish bosqichida o‘rgatiladigan texnik harakatlarni oqilona shakllantirish bo‘yicha metodika ishlab chiqilib, TGda sinovdan o‘tkazildi.

II bosqich (2022-yilning iyun-iyul oylari)da. Mazkur davr ichida nazorat va

tajriba guruhlarida kurashchilarning musobaqa faoliyati tadqiq qilindi. Ishlab chiqilgan metodikaning mohiyati va mazmuni, tajriba guruhida qo'llaniladigan tajribaviy dasturning maqsadi va mazmuni haqida yana bir bor tushuntirish suhbatlari tashkil etildi. Tadqiqotlarni o'tkazish muddatlari bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Tajribada kurashning samarali o'rgatish vositalarini ishlab chiqish va ularni qo'llash metodikasi ishlab chiqildi.

III bosqich (2022-yilning avgust-sentabr oylari)da. Bu bosqichda tajribada ishtirok etuvchi ikki guruhda ham dastlabki tadqiqotlar o'tkazildi va rejalashtirilgan texnik tayyorgarlikni baholash ishlari olib borildi. Nazorat guruhida o'tkazilgan an'anaviy mashg'ulotlar mazmuni o'rganildi. Kurashning samarali o'rgatish vositalarini ishlab chiqish va ularni qo'llash uslubi tajriba guruhida qo'llanilib borildi.

Belgilangan vaqt davomida tajriba muddati tugashi bilan ikki guruhda ham belgilangan texnik usullarni bajarish ko'nikmalarining shakllanganligini maxsus nazorat mashqlari yordamida aniqlash uchun yakuniy tadqiqotlar o'tkazildi. Tajriba natijalari umumlashtirildi va tabaqlashtirilgan holda statistik uslublar asosida qiyosiy tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning **"O'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 11-12 yoshli kurashchilarning kompleks tayyorgarlik dinamikasi"** deb nomlangan uchinchi bobida 11-12 yoshli kurashchilarning umumiyligi jismoniy tayyorgarligi dinamikasi, 11-12 yoshli kurashchilarning umumiyligi jismoniy tayyorgarligi dinamikasi (qiz bolalar), 11-12 yoshli kurashchilarning umumiyligi jismoniy tayyorgarligi dinamikasi (o'g'il bolalar), o'quv-mashg'ulot guruhlarida shug'ullanuvchi 11-12 yoshli kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi dinamikasi, 11-12 yoshli kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi dinamikasi (qiz bolalar), 11-12 yoshli kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi dinamikasi (o'g'il bolalar) tahlil qilingan.

Sportchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish texnologiyasiga doir bir qator ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ammo, o'tkazilgan tadqiqot ishlarida yosh kurashchilarni tayyorlash jarayonlarida ba'zi muhim ahamiyatli qismlarga e'tibor berilmagan. Bu esa kurashning umumiyligi jismoniy tayyorgarlik hamda texnik elementlarini o'rgatish kerakligini taqozo etmoqda.

Ushbu tadqiqotda 11-12 yoshli kurashchilarning mashg'ulot davomida jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasi qanday holatda rivojlanib kelayotganini aniqlash uchun amaliy nazarot sinovlari o'tkazildi.

1.Tanlab olingan amaliy nazarot sinovi **60 m.** masofaga (metr, sekund) yugurish orqali bajarilib, unda yosh kurashchilarning tezkorlik jismoniy sifat ko'rsatkichlari aniqlandi. Amaliy tajriba natijalariga ko'ra kurashchilarining tajriba boshidagi ko'rsatkichlari, tajriba guruhida tajriba boshida  $10,68 \pm 0,43$  (metr, sekund), variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 13,95\%$  tashkil qilgan bo'lsa, Nazorat guruhi kurashchi bolalarida tajriba boshida  $10,54 \pm 1,43$  (metr, sekund), variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 13,57\%$ ni tashkil etdi. Tajriba va nazorat guruhinig tajriba boshidagi absolyut farqi 0,14 ga, nisbiy farqi esa 1,33m.s ga teng. Statistik farqlar

( $t=0,23$ ;  $P>0,8$ )ni tashkil etdi. Amaliy tajriba natijalariga ko‘ra kurashchilarining tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlari tajriba guruhida  $8,15 \pm 1,07$  (metr, sekund), variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 13,13$  m.s ni tashkil qilgan bo‘lsa, Nazorat guruhida tajriba oxirida  $9,37 \pm 1,26$  (metr, sekund)ni, variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 13,45\%$  ni tashkil etdi. Tajriba va nazorat guruhinig tajriba oxiridagi absolyut farqi 1,22ga, nisbiy farqi esa 13,02ga teng. Statistik farqlar ( $t=2,56$ ;  $P<0,05$ )ni tashkil etdi.

2. Yosh ko‘rashchilarning **1000 m.**(daqiqa, o‘g’il bolalar n=30) masofaga yugurish bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy nazorat sinovlarining tajriba guruhi natijalari  $326,62 \pm 48,97\%$ , variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 14,99\%$  tashkil qilgan bo‘lsa, Nazorat guruhi kurashchi bolalarida tajriba boshida  $328,83 \pm 1,43$  (metr, sekund), variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 14,61\%$  ni tashkil etdi. Tajriba va nazorat guruhinig tajriba boshidagi absolyut farqi 2,21 ga, nisbiy farqi esa 0,67 m.s ga teng. Statistik farqlar ( $t=0,11$ ;  $P>0,9$ )ni tashkil etdi. Amaliy tajriba natijalariga ko‘ra kurashchilarining tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlari tajriba guruhida  $252,23 \pm 35,67$  (metr, sekund), variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 14,14$  m.sek. ni tashkil qilgan bo‘lsa, Nazorat guruhida tajriba oxirida  $289,62 \pm 41,68$  (metr, sekund)ni, variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 14,39\%$  ni tashkil etdi. Tajriba va nazorat guruhinig tajriba oxiridagi absolyut farqi 37,39, nisbiy farqi esa 12,91. Statistik farqlar ( $t=2,36$ ;  $P<0,05$ )ni tashkil etdi.

3. Yosh sportchilarning **3x10 m.ga** mokkisimon yugurish (soniya) bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy nazorat sinovlarini olish jarayonida tajriba guruhi  $14,28 \pm 2,28$  daqiqa vaqtda yugurdi, variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 15,97$  ni tashkil qildi. Nazorat guruhi esa tajriba boshida  $14,13 \pm 2,20$  daqiqada bosib o‘tishga muvaffaq bo‘ldilar. Variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 15,60$  ga teng ekanligining guvohi bo‘ldik. Ular o‘rtasidagi absolyut farq 0,3%ga teng deb topildi. Statistik farqlar ( $t=1,04$ ;  $P>0,01$ ) ekanligi dastlabki tadqiqotlar jarayonlarida aniqlandi. O‘tkazilgan amaliy nazorat sinovlarini olish jarayonida tajriba guruhi  $11,29 \pm 1,71$  daqiqa vaqtda yugurdi, variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 15,15$  ni tashkil qildi. Nazorat guruhi esa tajriba boshida  $12,62 \pm 1,94$  daqiqada bosib o‘tishga muvaffaq bo‘ldilar. Variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 15,37$  ga teng ekanligining guvohi bo‘ldik. Ular o‘rtasidagi absolyut farq 1,33%, nisbiy farq 10,54ga teng deb topildi. Statistik farqlar ( $t=1,78$ ;  $P>0,05$ ) ekanligi dastlabki tadqiqotlar jarayonlarida aniqlandi.

4. Yosh kurashchilarda **turnikda tortilish** (martta) bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy nazorat sinovlarini olish jarayonida tajriba guruhidagi yigitlar tajriba boshida  $12,52 \pm 1,87$  marta tortildi, variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 14,94\%$  ni tashkil qildi. Nazorat guruhida esa  $12,27 \pm 1,79$  marta tortilishga muvaffaq bo‘ldilar. Variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 14,59\%$  ga teng ekanligining guvohi bo‘ldik. Ular o‘rtasidagi absolyut farq 0,25%, nisbiy farq 2,04ga teng deb topildi. Statistik farqlar ( $t=0,33$ ;  $P>0,7$ ) ekanligi dastlabki tadqiqotlar jarayonlarida aniqlandi. Amaliy nazorat sinovlarini olish jarayonida tajriba guruhi tajriba oxirida  $14,16 \pm 2,82$  marta tortildi, variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 20,26\%$  ni tashkil qildi. Nazorat guruhida esa  $13,92 \pm 2,01$  marta tortilishga muvaffaq bo‘ldilar. Variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 14,44\%$  ga teng ekanligining guvohi bo‘ldik. Ular o‘rtasidagi absolyut farq 2,82%, nisbiy farq 20,26ga teng deb topildi. Statistik farqlar ( $t=3,14$ ;  $P<0,01$ ) ekanligi dastlabki

tadqiqotlar jarayonlarida aniqlandi.

### 1-jadval

**Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi 11-12 yoshli kurashchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi dinamikasi, (0'g'il bolalar n=30)**

Test	Guruh	Tajriba boshi						Tajriba oxirli					
		X	$\sigma$	V, %	AF	NF	t	X	$\sigma$	V, %	AF	NF	t
1	TG	10,68	1,49	13,95	0,14	1,33	0,23	>0,8	8,15	1,07	13,13	1,22	13,02
	NG	10,54	1,43	13,57					9,37	1,26	13,45		2,56 <0,05
2	TG	326,62	48,97	14,99	2,21	0,67	0,11	>0,9	252,23	35,67	14,14	37,39	12,91
	NG	328,83	48,03	14,61					289,62	41,68	14,39		2,36 <0,05
3	TG	14,28	2,28	15,97	0,15	1,06	0,16	>0,8	11,29	1,71	15,15		
	NG	14,13	2,20	15,60					12,62	1,94	15,37		1,33 10,54 >0,05
4	TG	12,52	1,87	14,94	0,25	2,04	0,33	>0,7	14,16	2,82	20,26		
	NG	12,27	1,79	14,59					13,92	2,01	14,44		2,82 20,26 3,14 <0,01
5	TG	1,26	0,18	13,92	0,02	1,37	0,24	>0,8	1,55	0,20	13,11	0,18	13,31 2,31 <0,05
	NG	1,24	0,17	13,63					1,37	0,18	13,39		
6	TG	9,94	1,59	15,96	0,19	1,88	0,29	>0,7	13,49	2,04	15,12	1,88	16,19 2,40 <0,05
	NG	10,13	1,58	15,60					11,61	1,79	15,40		14,37

Izoh: TG- tajriba guruhı; NG – nazorat guruhı. AF-absolyut farq, NF-nishiy farq (foizlarda):

5. Yosh kurashchilarda **turgan joydan uzunlikka sakrash** (metr) bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy nazorat sinovlarini o‘tkazish jarayonida tajriba guruhi yigitlari tajriba boshida  $1,26 \pm 2,01$  metr uzunlikka sakradi, variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 13,92\%$  ni tashkil qildi. Nazorat guruhi yigitlari esa  $1,24 \pm 0,17$  metr uzunlikka sakrashga muvaffaq bo‘ldilar. Variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 13,63\%$  ga teng ekanligining guvohi bo‘ldik. Ular o‘rtasidagi absolyut farq  $0,02\%$ , nisbiy farq  $1,37$  ga teng deb topildi. Statistik farqlar ( $t=0,24$ ;  $P>0,8$ ) ekanligi dastlabki tadqiqotlar jarayonlarida aniqlandi. Amaliy nazorat sinovlarini o‘tkazish jarayonida tajriba guruhi yigitlari tajriba oxirida  $1,55 \pm 0,20$  metr uzunlikka sakradi, variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 13,11\%$  ni tashkil qildi. Nazorat guruhi yigitlari esa  $1,37 \pm 0,18$  metr uzunlikka sakrashga muvaffaq bo‘ldilar. Variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 13,39\%$  ga teng ekanligining guvohi bo‘ldik. Ular o‘rtasidagi absolyut farq  $0,18\%$ , nisbiy farq  $13,31$  ga teng deb topildi. Statistik farqlar ( $t=2,31$ ;  $P<0,05$ ) ekanligi dastlabki tadqiqotlar jarayonlarida aniqlandi.

6. Yosh kurashchilarning **oldinga egilish** (sm) bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy nazorat sinovlarini olishda tajriba guruhi kurashchilari  $9,94 \pm 1,59$  (sm) oldinga egildi, variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 15,96\%$  ni tashkil qildi. Nazorat guruhidagilar esa  $10,13 \pm 1,58$  (sm) oldinga egilishga muvaffaq bo‘ldilar. Variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 17,7\%$  ga ega ekanligining guvohi bo‘ldik. Ular o‘rtasidagi absolyut farq  $0,19\%$ , nisbiy farq  $1,88$  ga teng deb topildi. Statistik farqlar ( $t=0,29$ ;  $P>0,7$ ) ekanligi dastlabki tadqiqotlar jarayonlarida aniqlandi. Amaliy nazorat sinovlarini olishda tajriba guruhi kurashchilari oxirida  $13,49 \pm 2,04$  (sm) oldinga egildi, variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 15,12\%$  ni tashkil qildi. Nazorat guruhidagilar esa  $11,61 \pm 1,79$  (sm) oldinga egilishga muvaffaq bo‘ldilar. Variatsiya koeffitsiyenti  $V\% = 15,40\%$  ga ega ekanligining guvohi bo‘ldik. Ular o‘rtasidagi absolyut farq  $0,19\%$ , nisbiy farq  $16,19$  ga teng deb topildi. Statistik farqlar ( $t=2,40$ ;  $P<0,05$ ) ekanligi dastlabki tadqiqotlar jarayonlarida aniqlandi.

Tadqiqotlar davomida boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi kurashchilarning yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlari dasturida belgilangan yuklamalariga binoan tayyorlov va musobaqa davrlaridagi yuklamalar nisbatini oqilona taqsimlashga e’tibor qaratildi (2-jadvalga qarang). Xususan, kurashchilarning jismoniy va funktsional tayyorgarlik darajalarini aniqlash, MJT va texnik tayyorgarlik darajasini, jismoniy, funksional va texnik tayyorgarlik darajalarini, texnik-taktik mahorat va maxsus chidamlilik darajasini oshirish, faol dam olish orqali kurashchilarning yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlari tuzilishini takomillashtirishga e’tibor qaratilgan.

Kurashchilar tayyorgarligining turli jihatlarini takomillashtirishning maqbul tizimini yaratish uchun ularga tegishli pedagogik ta’sirlarni doimiy ravishda izlab topishga majbur qiladi. Kurash bahslarini o‘tkazishning o‘zgartirilgan qoidalari talablariga maksimal darajada moslashtirilgan polvonlarni texnik-taktik tayyorlashning samarali metodikasini ishlab chiqish asosiy yo‘nalishlardan biridir. Biz 11-12 yoshli kurashchilarining jumladan, musobaqaning final qismlarini (birinchi va uchinchchi o‘rinlar uchun kurash) tahlil qildik. Texnik va taktik harakatlar tahlili turli internet saytlarida joylashtirilgan videoyozuvlar yordamida amalga

oshirildi. Bu harakatlarni tahlil qilishda biz tomonidan taklif qilingan jadvallardan foydalandik. Boshlang‘ich guruhidagi 11-12 yoshli kurashchilarining mashg‘ulotlarini rejalashtirishda tayyorgarlik bosqichlari hamda tayyorgarlik davrlariga yuklama me’yorlarini taqsimlashga e’tibor qaratildi (2-jadavalga qarang).

## 2-jadaval

### Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi kurashchilarining mashg‘ulotlar rejasi

Mashg‘ulot davrlari			Tayyorgarlik davri										
Tayyorgarlik bosqichlari			Maxsus tayyorgarlik										
Oylar			Aprel										
Haftalar													
Tr	Hafta kunlari	Mashg‘ulot vaqtি	1	2	3	4	5	6	7	8	9		
Tr	Hafta kunlari	Mashg‘ulot vaqtি	27-02	03-09	10-16	17-23	24-30	1-7	8-14	15-21	22-28		
Mezosikl							MUS	TORTUVCHI	HAJMLI				
Mikrosikl			PNT	MUS	TIK	NT	MUS	TIK	UJT	UJT	UJT		
1	Dush	Ertalab		CHIG	CHIG	CHIG	CHI G	CHIG	CHI G	CHIG	CHI G		
		Kunduzi		TTT	NAZ	TKT	TTT	TTT	NAZ	MJT	MJT		
		Kechki		IND	PNT	IND	IND	IND	TT	KROS	TKT		
2	Sesh	Ertalab		CHIG	CHIG	CHIG	CHI G	CHIG	CHI G	CHIG	CHI G		
		Kunduzi		TKT	KROS	IND	NT	NT	KRO S	TKT	TKT		
		Kechki		IND	TTT	TTT	IND	IND	O‘YI	TTT	TTT		
3	Chor	Ertalab		CHIG	CHIG	CHIG	CHI G	CHIG	CHI G	CHIG	CHI G		
		Kunduzi		O‘UM	O‘UM	NT	TK	O‘UM	SUZ	O‘UM	O‘U M		
		Kechki		IND	TKT	TT	TT	TT	TT	TT	TT		
4	Pay	Ertalab		CHIG	CHIG	CHIG	CHI G	CHIG	CHI G	CHIG	CHI G		
		Kunduzi		Suz	Suz	Suz	Suz	Suz	Suz	Suz	Suz		
		Kechki		IND	UJT	IND	IND	IND	UJT	TKT	TKT		
5	Juma	Ertalab		CHIG	CHIG	CHIG	CHI G	CHIG	CHI G	CHIG	CHI G		
		Kunduzi		TKT	KROS	KROS	TK	UJT	MJT	SUZ	SUZ		
		Kechki		TN	NT	IND	TK	UJT	NT	UJT	IND		
6	Shanba	Ertalab		CHIG	CHIG	CHIG	CHI G	CHIG	CHI G	CHIG	CHI G		
		Kunduzi		Kross	O‘um	Ind	TK	UJT	O‘um	O‘um	O‘um		
		Kechki					TT	UJT			TTT		
7	Yakshanba		Tiklanish tadbirlari										
Olishuv nazorat va musobaqa			1										
Chigalyozdi mashqlar			3	1	1				1	2	1		
UJT			3	3	3	2	3	3	3	3			
Kross tayyorgarligi			1	2	3		1	1	1	1			
Suzish			1	1	4		1	1	1	1			
Nazariy tayyorgarlik			1	1	1		1	1	1	1			
O‘yin usulida mashg‘ulot			1	1	1	1	1	1	1	1			
MJT			4	3	1	1	1	1	1	1			
Tezkor-kuch tayyorgarligi			1	3	3		1	2	2	2			
Murabbiy bilan indiv.mash			3	4	4	3	2	2	3	3			
TTT			2	4	6	4	3	3	3	4			
Tibbiy nazorat			1	1	1		2	2	1				
Tiklanish tadbirlari						4				4			

---

**2-jadval davomi**

Pedagogik nazorat testlari	2		2			2			2
Mashg'ulot kunlari soni		5	5	6	5	6	6	6	6
Mashg'ulotlar soati		22	26	34	11	20	21	26	23
<b>Umumiy oylik soatlar hajmi</b>			<b>93</b>				<b>90</b>		

**Izoh:** NT - nazariy tayyorgarlik; UJT – umumiy jismoniy tayyorgarlik; Mus – musobaqa; TT – tiklanish tadbirlari; Ind – individual; NT - nazariy tayyorgarlik; MJT – maxsus jismoniy tayyorgarlik; O'YI – o'yin usulida mashg'ulot TKT - Tezkor-kuch tayyorgarligi; TTT – texnik taktik tayyorgarlik; SUZ – suzish: ChYM – Chigal yozdi mashqlar

Kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligi parametrlaridagi o'zgarishlarning yo'nalishi va hajmini aniqlash uchun barcha musobaqlarda ularning bellashuvlarini muntazam ravishda stenografiya va videotasvirga olib borib tahlil qilindi. Ushbu dastlabki ma'lumotni tahlil qilish har bir kurashchining musobaqa faoliyatidagi mazmun va tuzilishini tizimli ravishda taqdim etish, mahoratining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Kurashning texnik tayyorgarligi sportchi tomonidan yuqori sport natijalariga erishishni ta'minlovchi harakatlar tizimining egallanganlik darajasi bilan ifodalanadi. Kurash texnikasini takomillashtirish kurashchilarning ko'p yillik tayyorgarligi davomida amalga oshiriladi. Kurash turlarida asosiy texnik usullarning klassifikatsiyasi to'rtta bosqichda rejalshtiriladi hamda kurash elementlarini bajarish metodikasi mashg'ulotlar davomida amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda texnik tayyorgarlik musobaqa harakatlarini yangi texnikasini shakllantirishga amaliyotda egallash shart-sharoitlarini yaxshilashga, musobaqa harakatlari tizmiga kiruvchi ayrim harakatlarni kurashchining holatini va tik turgan holatlardagi usullarni o'rganishga qaratilgan.

Ikkinci bosqich texnik tayyorgarlik musobaqa o'tkazishlar, yiqitishlar, tashlashlar kabi texnik element malakalarini chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan. Uchinchi bosqich shakllangan *bir qo'lda yonbosh, oyoqni kirgizib tashlash, belbog'dan ushlab, chunqayma* usullarini takomillashtirish, *beldan va yelkadan oshirib tashlash, yelka, ko'krakdan oshirib yonga otish* usuli kabi elementlarni musobaqa sharoitlariga mos holda variativ, barqaror, ishonchlik chegaralarini kengaytirishga qaratilgan.

To'rtinchi bosqich ushlashlar va yo'nalishlar har xil ushlashlar bilan turli yo'nalishlarda bajariladigan usullar variantlarini hosil qiluvchi va boshqa yo'nalishlarda bajariladigan qo'l hamda oyoqlar bilan harakatlanish texnikasi takomillashtirilgan.

Biz tomonimizdan kurash sport turining asosiy texnik usullarini bosqichma-bosqich bajarish metodikasi takomillashtirildi.


### 3-jadval

#### Kurashda asosiy texnik usullarni bosqichlarda bajarish metodikasi

1-bosqich	2-bosqich	3-bosqich	4-bosqich	Kurash elementlarini bajarish metodikasi
Kurashchining holati	Texnik usulning asosiy nomi	Texnik usulning asosiy harakati	Ushlashlar va yo'nalishlar	Raqib bilan oyoqlarni ishlatgan holda, har xil burilish usullarini raqib bilan immitatsiyasini bajarish
		<i>Bir qo 'ldan, oyoqni kirgizib tashlash, yonbosh-belbog', yonbosh qo 'ldan</i>		Mashqlarni alohida, juftlikda hamda gilamdan tashqarida fazovat oralig 'ida bajarish
	<i>Yonbosh guruhi</i>	<i>Ayiq quchoq, bardor, belbog 'oshirma, bo'yindan oshirib tashlash, chungayma, ko'krakdan yonga oshirish, to 'g 'anoq</i>		Gilamda raqib iloji boricha o'z vazni bilan bir xilda bo'lishi hamda bellashuvda har bir raqib oxirgi daqiqalarda faol harakat qilishi
Kurash usullari	<i>Bardor guruhi</i>	<i>Ichki chil, ichki ildirma, qarshi usul ichki chil, qarshi usul ildirma, quchoq bosma, tovondan tortish</i>	<i>Har xil ushlashlar bilan turli yo'nalishlarda bajariladigan usullar variantlarini hosil qiluvchi va boshqa yo'nalishda bajariladigan mashqlar</i>	Turli xil kombinatsiyalarni variativ tarzda qo'llash hamda usullarni qaytarish va modellashtirish
	<i>Chil guruhi</i>			Musobaqa vaqtida mushaklarini qizdirish va katta kuch sarflamasdan usullarni bajarish
	<i>Supurma guruhi</i>	<i>Bir oyoqdan, juft, oldindan chalish, orgadan chalish, qarshi supurma, yonga chalish</i>		

**Izoh:** Zamonaviy uzbek kurashi atamalari boshqa shiriftda berilgan.

Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi kurashchilarni tayyorlashda texnik elementlarni mikrosikllarga taqsimlab rejalashtirish asosida kurash turlarida asosiy texnik usullarni bosqichlarda bajarish metodikasi takomillashtirilgan. Hozirgi kunda, boshlang‘ich tayyorgarlik guruhida shug‘ullanuvchi 11-12 yoshli kurashchilarining mashg‘ulot jarayoni faoliyatini o‘rganish asosida jismoniy texnik-taktik qobiliyatlarini rivojlantirish, texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Bunday yondashuv musobaqa va o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarini oqilona boshqarishga yordam beradi. Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi 11-12 yoshli kurashchilar uchun tashkil qilingan birinchi haftadagi mikrosiklning mashg‘ulot rejasi quydagicha shakllantirilgan. Boshlangan haftaning ilk kunidagi mashg‘ulot hajmining 43%i, haftaning ikkinchi kunida 62%i va haftaning beshinchi (juma) kunida mashg‘ulotning 74%i kuch sifatini rivojlantiruvchi mashqlarni bajarishga beriladi. Haftaning payshanba va yakshanba kuni 11-12 yoshli kurashchilarining jismonan qayta tiklanishlari uchun dam olish kuni sifatida ajratildi. Haftaning boshqa kunlaridagi mashg‘ulotlar rejaga teng taqsimlanib borildi (1-rasm).



**Izoh:** Aylanani ichidan tashqariga qarab hafta kunlari hisoblanadi.(dushanbadan-yakshanbagacha)

#### **1-rasm. Boshlang‘ich tayyorlov guruhida shug‘ullanuvchi 11-12 yoshli kurashchilarining haftalik mikrosiklida mashg‘ulot yuklamalarining taqsimlanishi**

Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhida shug‘ullanuvchilarining haftalik mashg‘ulot sikllariga tayyorgarlik turlarini rejalashtirish orqali kurashchilarni tayyorlash mexanizmlari takomillashtirilgan.

#### 4-jadval

##### Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchilarning mashg‘ulotlarini rejalashtirish metodikasi

№	Turlar	Nazariy ma'lumotlar	Maxsus va umumiy rejalashtiruvchi mashqlar	O'rnatish texnikasi	Me'yor va uslubiy ko'rsatmalari
1		Kurash texnikasi	Tayanch usullarni o'zlashtirish: ushlash, tashlash, o'tkazish, ushlab turish.	Raqib belbog'idan ushlagan holda oyoqlar yordamida oyoq orqasidan chalish usulini bajarish	2- 3 daqiqa, shu usulni bir tomonlama oshirish vaqtida
2	Texnlik tayyorgarlik	Kurash paytida yaqin, o'ita, uzoq masofada chapga, o'ngga, orqaga va oldinga yurishlar, olishish va ushlashlar.	Ushlashlar, tashlashlar, o'tkazmalar, ushlab qolish.	Raqibni belbog'idan ushlab turgan holda oyoqning orqa qismidan usulini bajarish.	2-4 daqiqa, O'quv-olishuv mashqlar, raqib orqadan ushlagan vaqtida qanday usul ishlatish lozimligini ishlab chiqish.
3	Ismoniy tayyorgarlik	Tezlikni rivojlantiruvchi mashqlar.	Qisqa masafogalarga yugurish	Texnikani takomillashtirish	4 daqiqa 4x4 marotaba olishish. Shaxsan yelkadan oshirish usullarida.
4		Chidamlilikni rivojlantirish mashqlari.	Uzoq masofaga yugurish. 5x30m tepalikka yugurish	Uzoq masofaga vaqtga yoki kross yugurish guruh bo'lib	4x10 daqiqa, turnikda osilib turish
5	Taktik tayyorgara tilgimi tayyorgara tilgimi takomill	Raqiarning taktil hollatlarini o'rganish uslubiga tayyorlash yo'llari.	Hujumga taqlid qilish(bajarish)	.	Shu usul bilan o'quv mashg'uloti: 2 daqiqa 6 marotaba.

#### 4-jadval davomi

6	Qarshi hujum: raqib xatolaridan foydalanish, qarshi tashlash.	Raqibni charchatish: uzoq kurashish, jismoniy va ruhiy bosim yaratish.	Tuzoqlar va guminondorlar: Tashlashga tayyorgarlik, himoyadagi taktik manevrilar.	Ushlashdan qochish (tezlikda) 4 daqiq
7	Kuch bilan ishlash, Chidamlilik, Egiluvchanlik Tezlik va reaksiya.	Texnik tayyorgarlik. Vaziyatlari kurashlar. Kombinatsiyalar.	Yengdan ushlash usulini amalga oshirish, usulni turli usullar bilan takomillashtirish.	Shu usulda o'quv mashq'lari bellashivi: 4x4 marta.
8	Musobaqaga bir hafta qolganda texnik va taktik mashg'ulotlarning umumiy shiddati pasayadi. Haddan tashqari zo'riqish va jarohatlardan qochish muhimdir.	Taktik tayyorgarlik: raqiblarni o'rganish, bellashuvlarni rejalashtirish, xatolar ustida ishlash.	Raqib orqaga yurgan chog'da ishlatalidigan usulblari: a) yiqitish: b) oyoq ichidan oyoq yordamida ilib orqaga tashlash usulini takomillashtirish.	O'quv-mashg'uloti jarayonida yutqazgan chiqib ketish, yutgan kurashni davom ettirish tizimida olishish (pulka). G'olib aniqlanguncha
